

PROTECTION OF CONSUMER RIGHTS IN THE SALE OF SUBstandard PRODUCTS

Bukhara State University, Faculty of History and Law
Jurisprudence 3rd year student
Zaripov Jurabek Sodikovich
jurabekzaripov7@gmail.com

Abstract. This thesis analyzes the legal framework for protecting consumer rights in relations related to the sale of substandard products based on the current legislation of the Republic of Uzbekistan. In particular, the rights of the consumer, the obligations of the seller and the manufacturer, the concept of a substandard product, and the legal mechanisms for protecting consumer rights are covered based on the Constitution of the Republic of Uzbekistan, the Civil Code, the Law "On the Protection of Consumer Rights" and other regulatory legal acts regulating this area.

Keywords: consumer, consumer rights, poor-quality product, consumer rights protection, seller, manufacturer, Civil Code, consumer contract, quality of goods, current legislation.

Kirish

Bugungi kunda iste'mol bozorida tovarlar sifati va xavfsizligini ta'minlash iste'molchilar huquqlarini himoya qilishning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Sifatsiz mahsulotning realizatsiya qilinishi nafaqat iste'molchining mulkiy manfaatlariga, balki uning hayoti, sog'lig'i va boshqa qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlariga ham salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli mazkur sohadagi huquqiy munosabatlarni samarali tartibga solish hamda iste'molchilarning huquqlarini ishonchli himoya qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur munosabatlarning huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Fuqarolik kodeksi hamda "Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonun va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar bilan belgilanadi. Ushbu hujjatlarda iste'molchining sifatli va xavfsiz mahsulotni xarid qilish, mahsulot to'g'risida to'liq hamda ishonchli axborot olish, shuningdek, buzilgan huquqlarini qonunda belgilangan tartibda tiklash huquqlari mustahkamlangan.

Mazkur tezisning maqsadi sifatsiz mahsulot sotilganda iste'molchilarning huquqlarini ta'minlashning huquqiy asoslarini O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi asosida tahlil qilish hamda iste'molchi, sotuvchi va ishlab chiqaruvchi o'rtasida vujudga keladigan huquqiy munosabatlarning mazmunini yoritishdan iborat.

Asosiy qism

Sifatsiz mahsulot va tovarlarning sotilishi bilan bog'liq munosabatlarda, avvalo, iste'molchining huquqiy maqomi hamda uning qonunchilikda belgilangan kafolatlarini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Iste'molchi tovar sotib olish jarayonida nafaqat mahsulotning narxi, balki uning sifati, xavfsizligi va belgilangan talablarga muvofiqligi haqida ishonchli ma'lumot olish huquqiga ega. Shu bilan birga, mahsulot sifati bo'yicha belgilangan talablarning buzilishi sotuvchi va ishlab chiqaruvchining qonunda nazarda tutilgan majburiyatlarini yuzaga keltiradi.

Amaldagi qonunchilikka ko'ra, tovarning sifati iste'molchi bilan tuzilgan shartnoma shartlariga hamda belgilangan talablarga mos bo'lishi lozim. Agar sotilgan mahsulotda nuqson aniqlansa yoki u iste'mol uchun belgilangan talablarga javob bermasa, iste'molchi o'zining buzilgan huquqlarini tiklash uchun qonunda belgilangan himoya vositalaridan foydalanishi mumkin.

Iste'molchilar huquqlarini himoya qilishga oid munosabatlarni tahlil qilishda, avvalo, ushbu munosabatlar ishtirokchilarining huquqiy maqomini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Chunki sifatsiz mahsulot sotilishi bilan bog'liq huquqiy munosabatlarda iste'molchi, sotuvchi va ishlab chiqaruvchi asosiy subyektlar sifatida ishtirok etadi.

"Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunda iste'molchi foyda olish bilan bog'liq bo'lmagan holda shaxsiy iste'mol yoki boshqa maqsadlarda tovar sotib oluvchi, ish yoki xizmatga buyurtma beruvchi yoxud shu maqsadda bo'lgan fuqaro sifatida belgilangan. Mazkur tushuncha iste'molchining tadbirkorlik faoliyati doirasidan tashqarida, o'z

ehtiyojlarini qondirish maqsadida huquqiy munosabatga kirishishini anglatadi. [1]. Shuningdek, qonunchilikda sotuvchi va ishlab chiqaruvchining huquqiy maqomi ham belgilangan bo'lib, sotuvchi iste'molchiga oldi-sotdi shartnomasi asosida tovar realizatsiya qiluvchi subyekt, ishlab chiqaruvchi esa iste'molchiga taqdim etish uchun mahsulot ishlab chiqaruvchi shaxs yoki tashkilot hisoblanadi. [2]. Mazkur subyektlarga yuklatilgan majburiyatlar, avvalo, iste'molchiga sifatli va xavfsiz mahsulot yetkazib berishni ta'minlashga qaratilgan.

Iste'molchi va sotuvchi (ishlab chiqaruvchi) o'rtasidagi munosabatlar shartnoma asosida vujudga keladi. Shartnoma orqali tovarning sifati, miqdori, narxi, yetkazib berish muddati hamda boshqa muhim shartlar belgilanadi. Shu sababli mahsulot sifati bo'yicha talablarning buzilishi shartnoma majburiyatlarining lozim darajada bajarilmaganligi sifatida baholanib, iste'molchining qonunda nazarda tutilgan huquqlarini amalga oshirishiga asos bo'ladi.

Iste'molchilarning huquqiy maqomini belgilash bilan birga, ularning qonunchilikda mustahkamlangan asosiy huquqlarini ko'rib chiqish muhim ahamiyatga ega. "Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunning 4-moddasida iste'molchilarning asosiy huquqlari belgilangan. Unga ko'ra, iste'molchi tovar (ish, xizmat) hamda ishlab chiqaruvchi, ijrochi yoki sotuvchi haqida to'liq va ishonchli ma'lumot olish, tovarni erkin tanlash va uning sifatli bo'lishini talab qilish huquqiga ega. Shuningdek, iste'molchi mahsulotning xavfsizligini talab qilish, sifatsiz yoki xavfli tovar tufayli yetkazilgan moddiy va ma'naviy zararni qoplashni talab qilish huquqiga ega.

Bundan tashqari, buzilgan huquqlari va qonun bilan muhofaza qilinadigan manfaatlarini himoya qilish maqsadida iste'molchining sudga hamda vakolatli davlat organlariga murojaat qilish huquqi kafolatlangan. Mazkur huquqlar sifatsiz mahsulot sotilishi bilan bog'liq holatlarda iste'molchi manfaatlarini himoya qilishning asosiy huquqiy vositalarini tashkil etadi.

Iste'molchilarning huquqlarini ta'minlashda ularni tovar va ishlab chiqaruvchi to'g'risida to'liq hamda ishonchli axborot bilan ta'minlash muhim ahamiyatga ega. "Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunning 5 va 6-moddalariga ko'ra, ishlab chiqaruvchi, sotuvchi va ijrochi iste'molchiga o'z faoliyati, joylashgan manzili, ish tartibi hamda realizatsiya qilinayotgan tovar (ish, xizmat) haqida zarur ma'lumotlarni taqdim etishi shart.

Tovar haqidagi ma'lumotlarda uning nomi, asosiy xususiyatlari, sifati, narxi, foydalanish qoidalari, xizmat muddati, ishlab chiqaruvchi haqidagi ma'lumotlar va xavfsiz foydalanish talablari aks ettirilishi lozim. Mazkur talablar iste'molchiga mahsulotni ongli ravishda tanlash imkonini beradi hamda sifatsiz yoki xavfli mahsulotlarning muomalaga chiqarilishining oldini olishga xizmat qiladi. [3].

Shuningdek, qonunchilikka ko'ra, tovar yoki xizmat haqida zarur axborotning taqdim etilmasligi iste'molchi manfaatlarini buzuvchi holat sifatida baholanadi. Shu sababli ishlab chiqaruvchi va sotuvchining axborot berish majburiyati iste'molchilar huquqlarini himoya qilishning muhim huquqiy kafolatlaridan biri hisoblanadi.

Iste'molchining huquqlarini himoya qilishda tovar (ish, xizmat) haqida beriladigan ma'lumotlarning to'g'riligi va to'liqligi ham muhim ahamiyatga ega. Qonunchilikka ko'ra, agar iste'molchiga noto'g'ri yoki yetarli darajada to'liq bo'lmagan axborot berilishi natijasida u zarur xususiyatlarga ega bo'lmagan tovarni sotib olsa yoki undan ko'zlangan maqsadda foydalana olmasa, shartnomani bekor qilish hamda yetkazilgan zararni qoplashni talab qilish huquqiga ega.

Shuningdek, noto'g'ri ma'lumot iste'molchining hayoti, sog'lig'i yoki mol-mulkiga zarar yetkazilishiga sabab bo'lgan taqdirda, iste'molchi ishlab chiqaruvchi, ijrochi yoki sotuvchiga nisbatan qonunchilikda nazarda tutilgan talablarni qo'yishi mumkin. Bunda iste'molchining zararini qoplash haqidagi talablari uning tovar xususiyatlari bo'yicha maxsus bilimga ega emasligi haqidagi taxmin asosida ko'rib chiqiladi.

Noto'g'ri reklama oqibatida sotib olingan tovar (ish, xizmat) tufayli iste'molchiga yetkazilgan zarar ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi) tomonidan to'liq hajmda qoplanishi lozim. [4].

Sifatsiz mahsulot sotilganda iste'molchining huquqlarini himoya qilish mexanizmlari "Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunning 13-moddasida

belgilangan. Unga ko'ra, agar tovarning nuqsonlari oldindan iste'molchiga ma'lum qilinmagan bo'lsa, iste'molchi o'z xohishiga ko'ra tovarni sifatligiga almashtirish, nuqsonlarni bepul bartaraf etish, xarid narxini kamaytirish yoki shartnomani bekor qilib, yetkazilgan zararni qoplashni talab qilish huquqiga ega.

Mazkur huquqlar tovarning kafolat muddati, yaroqlilik muddati yoki qonunchilikda belgilangan boshqa muddatlar davomida aniqlangan nuqsonlarga nisbatan qo'llaniladi. Iste'molchining ushbu talablarni sotuvchiga taqdim etishi hamda sotib olinganligini tasdiqlovchi hujjatlar mavjudligi huquqiy munosabatlarni hal etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Sifatsiz yoki talabga javob bermaydigan mahsulotlar bilan bog'liq holatlarda tovarning nafaqat sifati, balki uning to'liqligi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Tovar tarkibining to'liq bo'lmashligi iste'molchi yoki sotib oluvchining undan belgilangan maqsadda foydalanish imkoniyatini cheklaydi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 413-moddasiga ko'ra, but bo'lmagan tovar topshirilgan taqdirda, sotib oluvchi xarid narxini mutanosib ravishda kamaytirishni yoki tovarni oqilona muddatda butlashni talab qilish huquqiga ega. Agar sotuvchi belgilangan muddatda ushbu talabni bajarmasa, sotib oluvchi tovarni almashtirishni, shartnomani bekor qilishni hamda yetkazilgan zararni qoplashni talab qilishi mumkin. [5].

Shuningdek, xo'jalik shartnomalarida tovarlarning to'liq yetkazib berilishini ta'minlash bilan bog'liq majburiyatlar ham belgilangan. "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonunning 27-moddasiga muvofiq, but bo'lmagan tovarlar yetkazib berilgan taqdirda sotib oluvchi (buyurtmachi) tovarlarni butlashni talab qilish, belgilangan tartibda to'lovni amalga oshirishni rad etish yoki to'langan mablag'larni qaytarishni talab qilish huquqiga ega. Yetkazib beruvchi belgilangan muddatda majburiyatini bajarmagan taqdirda, sotib oluvchi tovarlarni qaytarish va ularni but tovarlarga almashtirishni talab qilishi mumkin. [6].

Sifatsiz yoki nuqsonli tovar sotilganda iste'molchining huquqlarini amalga oshirish tartiblari "Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunning 14–18-moddalarida belgilangan. Unga ko'ra: iste'molchi tovarning ishlab chiqarilishi, tuzilishi yoki tarkibidagi nuqsonlarni aniqlagan taqdirda, sotuvchi (ishlab chiqaruvchi)dan tovarni ayni shunday markali (modelli, artikulli) sifatli tovarga almashtirishni talab qilish huquqiga ega. Bunda almashtirish talabi 7 kunlik muddatda, tovar sifatini qo'shimcha tekshirish zarur bo'lgan hollarda esa 20 kun ichida bajarilishi lozim. Ayni turdagi tovar mavjud bo'lmagan taqdirda, iste'molchining talabi bir oy ichida, cho'l va olis hududlarda esa ikki oydan kechiktirib qanoatlantirilishi kerak. Ushbu muddatlar buzilgan har bir kun uchun sotuvchi (ishlab chiqaruvchi) tovar bahosining 1 foizi miqdorida neustoyka to'laydi. [7].

Nuqsonli tovarlardagi kamchiliklarni bartaraf etish masalasi Qonunning 15-moddasida tartibga solingan bo'lib, kafolat muddati davomida aniqlangan nuqsonlar sotuvchi tomonidan 20 kun ichida, ishlab chiqaruvchi tomonidan esa 10 kun ichida bepul bartaraf etilishi lozim. Tovar ta'mirlash davrida uzoq muddat foydalaniladigan tovarlar uchun iste'molchining talabiga ko'ra, uch kun ichida ayni shunday markali (modelli, artikulli) tovar vaqtincha berib turilishi kerak. [8].

Agar sotuvchi yoki ishlab chiqaruvchi iste'molchining tovarni almashtirish yoxud nuqsonlarni bartaraf etish haqidagi talablarini bajarmasa, iste'molchi Qonunning 16-moddasiga asosan tovar narxini nuqsonga mutanosib ravishda kamaytirishni yoki shartnomani bekor qilib, yetkazilgan zarar va ma'naviy zararni qoplashni talab qilish huquqiga ega.

Shuningdek, nuqsonli tovar bilan bog'liq hisob-kitoblar Qonunning 17-moddasi asosida amalga oshiriladi. Tovar almashtirilganda yoki shartnoma bekor qilinganda narxlar o'zgarishi hisobga olinib, tegishli qayta hisob-kitob qilinadi. Katta hajmdagi yoki besh kilogrammdan ortiq og'irlikdagi tovarlarni ta'mirlash, almashtirish yoki qaytarish bilan bog'liq tashish xarajatlari sotuvchi (ishlab chiqaruvchi) zimmasiga yuklatiladi.

Bundan tashqari, Qonunning 18-moddasiga ko'ra, iste'molchi maqbul sifatli nooziq-ovqat tovarini xarid qilgan kundan e'tiboran 10 kun ichida uni ayni shunday tovarga almashtirish,

bunday tovar mavjud bo'lmagan taqdirda esa pulini qaytarib olish huquqiga ega. Bunda tovar foydalanilmagan, shikastlanmagan va uning iste'mol xususiyatlari saqlangan bo'lishi lozim.

Iste'molchining huquqlari buzilgan taqdirda, qonunchilikda belgilangan tartibda huquqiy himoya choralariidan foydalanish imkoniyati mavjud. Bunda iste'molchi o'zining buzilgan huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini tiklash maqsadida vakolatli organlarga murojaat qilish hamda qonunda nazarda tutilgan talablarni qo'yish huquqiga ega. Iste'molchilar huquqlarini buzganlik uchun esa qonunchilikda tegishli javobgarlik choralari belgilangan. Xususan, "Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunning 20-moddasida tovar (ish, xizmat)ning nuqsonlari tufayli iste'molchiga yetkazilgan zarar uchun mulkiy javobgarlik belgilangan. Unga ko'ra, tovarning tuzilishi, ishlab chiqarilishi, tarkibidagi nuqsonlar yoki iste'molchining hayoti, sog'lig'i va mol-mulkiga xavf tug'diruvchi vositalardan foydalanish natijasida yetkazilgan zarar sotuvchi, ishlab chiqaruvchi yoki ijrochi tomonidan qoplanishi lozim. Mazkur huquq iste'molchining ushbu subyektlar bilan shartnomaviy munosabatda bo'lgan yoki bo'lmaganligidan qat'i nazar amalga oshirilishi mumkin.

Shuningdek, iste'molchining hayoti, sog'lig'i yoki mol-mulkiga yetkazilgan zarar tovarning xizmat (yaroqlilik) muddati davomida, bunday muddat belgilanmagan hollarda esa tovar ishlab chiqarilgan yoki ish (xizmat) qabul qilingan paytdan e'tiboran o'n yil mobaynida yuzaga kelgan bo'lsa, qoplanishi lozim. Bunda sotuvchi, ishlab chiqaruvchi yoki ijrochi zarar bartaraf etib bo'lmaydigan kuch, shuningdek iste'molchining foydalanish, saqlash yoki tashish qoidalarini buzishi natijasida yuzaga kelganligini isbotlagan taqdirdagina javobgarlikdan ozod qilinishi mumkin.

Bundan tashqari, iste'molchining huquqlari buzilishi natijasida unga yetkazilgan ma'naviy zarar ham qonunchilik asosida qoplanadi. Qonunning 22-moddasiga ko'ra, iste'molchiga ma'naviy zarar yetkazgan shaxs, agar uning aybi mavjud bo'lsa, ushbu zarar uchun haq to'lashi lozim. Ma'naviy zarar uchun to'lanadigan haq miqdori sud tomonidan belgilanadi va u mulkiy zarar qoplangan-qoplanmaganligidan qat'i nazar undiriladi.

Iste'molchilar huquqlarini himoya qilishning muhim kafolatlaridan biri davlat tomonidan amalga oshiriladigan himoya tizimidir. Qonunning 23-moddasiga muvofiq, davlat iste'molchilarning tovar va xizmatlarni sotib olish hamda ulardan foydalanish jarayonidagi huquqlari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini kafolatlaydi. Ushbu himoya davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari hamda sudlar tomonidan ta'minlanadi. [9].

Mazkur kafolatlar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 65-moddasida belgilangan bo'lib, unda davlat bozor munosabatlarini rivojlantirish, halol raqobat uchun shart-sharoit yaratish hamda iste'molchilar huquqlarining ustuvorligini ta'minlashni kafolatlashi nazarda tutilgan.

Iste'molchilar huquqlarining davlat tomonidan kafolatlanishi bilan bir qatorda, ushbu huquqlarni buzganlik uchun tegishli javobgarlik choralari ham belgilangan. "Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunning 27-moddasiga muvofiq, ishlab chiqaruvchi, ijrochi va sotuvchi iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi qonunchilik talablarini buzganligi uchun javobgar bo'ladi. Jumladan, iste'molchilarga tovarlar (ishlar, xizmatlar) haqida zarur, to'liq va ishonchli axborot taqdim etmaslik, bila turib noto'g'ri ma'lumot berish, yaroqlilik muddati o'tgan yoki qonunchilik talablariga javob bermaydigan tovarlarni realizatsiya qilish, shuningdek iste'molchilar huquqlarining buzilishini bartaraf etish haqidagi vakolatli organlar ko'rsatmalarini bajarmaslik uchun qonunchilikda ma'muriy javobgarlik nazarda tutilgan.

Bunda ma'muriy jazo choralarining qo'llanilishi ishlab chiqaruvchi, ijrochi yoki sotuvchini yo'l qo'yilgan qoidabuzarliklarni bartaraf etish majburiyatidan ozod etmaydi. Shuningdek, tovar (ish, xizmat)larning xavfsizlik talablariga javob bermasligi natijasida iste'molchiga zarar yetkazilgan taqdirda, xavfsizlik va sifat ustidan nazoratni amalga oshiruvchi vakolatli davlat organlarining mansabdor shaxslari ham qonunchilikka muvofiq javobgar bo'ladi.

Xulosa

Sifatsiz mahsulot sotilganda iste'molchilar huquqlarini himoya qilish masalasi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida yetarlicha huquqiy tartibga solingan. Tahlil natijasida iste'molchining sifatli va xavfsiz mahsulot olish, zarur axborotga ega bo'lish hamda buzilgan huquqlarini tiklash imkoniyatlari qonun bilan kafolatlanganligi aniqlandi. Shuningdek, sotuvchi va ishlab chiqaruvchining mahsulot sifati, xavfsizligi hamda iste'molchi oldidagi majburiyatlari belgilangan bo'lib, ushbu talablarni buzganlik uchun tegishli javobgarlik choralari nazarda tutilgan. Mazkur huquqiy mexanizmlar iste'molchilar manfaatlarini himoya qilish va iste'mol bozorida qonuniylikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. 30.04.2023-yil. 65-modda. <http://lex.uz/docs/-6445145>
2. O'zbekiston Respublikasining "Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni, 26.04.1996-yil, 221-I-son. <http://lex.uz//ru/docs/-4704>
3. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. "Reklama to'g'risida". 07.06.2022-yil, O'RQ-776-son. 22-modda. <http://lex.uz//uz/docs/-6052631>
4. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi (ikkinchi qism). 413-modda. 29.08.1996-yil <http://lex.uz/docs/-180552>
5. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida". 29.08.1998-yil, 670-I-son. 27-modda. <http://lex.uz//ru/docs/-18942>